



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/DSBR1256

ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH**To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**tayanch doktorati**student shaxnozat11@gmail.com**ORCID: 0009-0009-9775-5824*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning imlo savodxonligini rivojlantirishda assotsiativ usulning o'rni, uning psixologik-pedagogik asoslari va amaliy qo'llanilishi yoritilgan. Assotsiatsiya orqali so'zlar, obrazlar va hodisalar o'rtasida bog'lanishlar hosil qilish orqali o'quvchining yozma nutqdagi imlo ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyatlarini tahlil qiladi. Jon Lokk, D.Yum, I.P.Pavlov, L.S.Vygotskiy kabi olimlarning fikrlari asosida uslubiy asoslar bayon etilgan. Shuningdek, Richards, Rodgers va Brownlarning ta'limi qarashlari asosida metodik tavsiyalar berilgan. Maqolada imlo mashqlari uchun assotsiativ metodga asoslangan samarali topshiriqlar, interaktiv texnologiyalar bilan uyg'un ishlash g'oyalari keltirilgan. Tajriba natijalari bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, xotirasi, diqqatini rivojlantirishda ham foydali ekanini ko'rsatadi. Xulosa sifatida, assotsiativ yondashuv imlo o'rgatishda ijodiy va individual yondashuvning muhim metodlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: Assotsiativ usul, imlo savodxonligi, ta'lif metodlari, psixologik asoslar, pedagogik yondashuv, interaktiv texnologiyalar, xotira va fikrlash, ta'lif jarayoni, onlayn platformalar, mobil ilovalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль ассоциативного метода в развитии орфографической грамотности учащихся, его психолого-педагогические основы и практическое применение. Процесс создания ассоциаций между словами, образами и событиями помогает укрепить орфографические навыки в письменной речи учащихся. На основе идей таких ученых, как Джон Локк, Д. Юм, И. П. Павлов, Л. С. Выготский, изложены методологические основы. Также предложены методические рекомендации, основанные на взглядах Ричардса, Роджерса и Брауна. В статье представлены эффективные задания для орфографических упражнений с использованием ассоциативного метода, а также идеи о гармоничном сочетании с интерактивными технологиями. Результаты экспериментов показывают, что такой подход полезен для развития независимого мышления, памяти и внимания учащихся. В заключении ассоциативный подход признается одним из важных методов творческого и индивидуального подхода при обучении орфографии.

Ключевые слова: Ассоциативный метод, орфографическая грамотность, образовательные методы, психолого-педагогические основы, педагогический подход, интерактивные технологии, память и мышление, образовательный процесс, онлайн-платформы, мобильные приложения.

Abstract: This article examines the role of the associative method in developing students' orthographic literacy, its psychological-pedagogical foundations, and practical applications. The process of creating associations between words, images, and events helps strengthen orthographic skills in students' written speech. The methodological foundations are based on the ideas of scholars such as John Locke, D. Hume, I.P. Pavlov, and L.S. Vygotsky. The article also presents methodological recommendations based on the educational views of Richards, Rodgers, and Brown. It includes effective assignments for orthographic exercises based on the associative method and ideas for its integration with interactive technologies. The experimental results show that this approach is useful for developing students'



independent thinking, memory, and attention. In conclusion, the associative approach is recognized as one of the important methods for a creative and individual approach to teaching orthography.

Keywords: Associative method, orthographic literacy, teaching methods, psychological foundations, pedagogical approach, interactive technologies, memory and thinking, educational process, online platforms, mobile applications.

Zamonaviy ta'lif jarayonida imlo savodxonligi muhim o'rinni tutadi. O'quvchilarning ona tilidagi savodxonligini oshirishda samarali metodlardan biri bu — assotsiativ yondashuvdir. Bu usul yordamida o'quvchilar so'zlar, hodisalar, obrazlar o'rtasidagi bog'lanishlarni hosil qiladi va shu asosda imlo qoidalarini eslab qoladi. Avliyokulov ta'kidlaganidek: "Yozma nutqni o'rgatishda interaktivlik va assotsiativlik elementlari o'quvchining mustaqil fikrlash va to'g'ri yozish ko'nikmasini rivojlantiradi" [1].

Assotsiativ usulning nazariy asoslari. Pedagogik psixologiya sohasida mashhur olim Lev Vygotsky o'zining "Fikr va til" ("Thought and Language") asarida til o'rganishning ijtimoiy-psixologik asoslarini yoritib berdi. Unga ko'ra, til va tafakkur bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchi bilimlarni atrofdagi muhit va shaxslar bilan muloqot orqali o'zlashtiradi. Bu holat assotsiativ o'rganishga ham asos yaratadi. Assotsiatsiya tushunchasi dastlab psixologik yondashuv sifatida ingliz faylasufi Jon Lokk tomonidan ilgari surilgan. U o'zining "Inson aqli haqidagi risola" ("An Essay Concerning Human Understanding", 1690) asarida shunday yozadi: "*Odamlar bilimni faqat tajriba asosida hosil qiladi va bu bilimlar bir-biri bilan bog'lanib assotsiatsiyalar hosil qiladi*"[4]. Bu fikrlar orqali bilimlar tajribalar bilan shakllanadi va ular orasidagi bog'liqliklar (assotsiatsiyalar) orqali mustahkamlanadi, deb hisoblagan. Keyinchalik Devid Yyum bu g'oyani rivojlantirib, inson tafakkuri uch asosiy bog'lanish – o'xshashlik, yaqinlik va sabab-natija asosida ishlaydi, degan fikrni ilgari surgan[5]. Bu fikrlar assotsiativ yondashuvning falsafiy poydevorini tashkil etadi. XX asrda rus fiziologi I.P.Pavlov esa bu nazariyani tajriba asosida isbotlab berdi: "*Shartli reflekslar o'quvchilarda mustahkam bilim shakllanishi uchun asosiy mexanizmdir*"[3]. Lev Vygotskiy esa til va tafakkur o'rtasidagi aloqani ta'riflab, til o'rganish ijtimoiy muhit va muloqot orqali yuzaga kelishini aytadi. Uning fikricha: "*Fikr va til o'zaro bog'liq, til – tafakkurning asosiy vositasidir*" [6]. Mashhur tilshunos olimlar Richards va Rodgers o'zlarining "Approaches and Methods in Language Teaching" nomli asarlarida assotsiativ yondashuvni kommunikativ metodlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi [7]. Ular o'quvchida fikr va til bog'lanishini mustahkamlovchi usullarga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, Douglas Brown o'zining "Principles of Language Learning and Teaching" kitobida "*O'quvchi o'z shaxsiy hayoti yoki hissiy tajribalari bilan bog'lagan bilimni tezroq va mustahkamroq o'zlashtiradi*" [8], deb ta'kidlaydi. Bu esa assotsiativ yondashuvning amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Zamonaviy ta'lifda o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish masalasi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Xususan, imlo qoidalarini yodlash, to'g'ri



yozish va amaliyotda qo'llashda o'quvchilar ko'plab xatolarga yo'l qo'yadilar. Ushbu muammoni hal etishda interaktiv va kognitiv yondashuvlar asosida assotsiativ usuldan foydalanish samarali hisoblanadi. Assotsiatsiya – bu inson miyasi faoliyatiga xos bo'lgan, yangi tushuncha va obrazlarni ilgari mavjud bo'lgan bilimlar bilan bog'lash jarayonidir. Didaktik nuqtayi nazardan qaraganda, assotsiativ o'qitish o'quvchida tushuncha, tasavvur, holat va harflar, tovushlar o'rtasida bog'liqlik o'rnatishga xizmat qiladi. Masalan, "daryo" so'zini eslatganda "suv", "oqim", "ko'l" kabi so'zlar xayolga keladi. Shu asosda o'quvchi daryo so'zining yozilishi va ma'nosini eslab qoladi. Bu metod orqali o'quvchi o'rganayotgan imlo qoidalarini anglash va ularni ongli ravishda qo'llashga o'rganadi.

Assotsiativ usul orqali imlo saboqlarini tashkil etishning afzallikkari quyidagilardan iborat:

Vizual eslab qolish kuchayadi:

Rangli kartochkalar, so'zlar bilan bog'liq rasmlar orqali harf yoki so'zning to'g'ri yozilishi vizual tasvir bilan birga yodlanadi.

Mantiqiy bog'lanish o'rnatiladi:

O'quvchi "so'z + ma'no + talaffuz + yozuv" zanjiri orqali ketma-ketlikni anglaydi.

Ijodkorlik va mustaqil fikrlash shakllanadi:

Har bir so'zga bog'liq rasmlar, misollar, qo'shma va juft so'zlar orqali shaxsiy tajriba orttiriladi.

Metodik yondashuvlar. Aliqulov va Rajabov ta'limda assotsiativ metodlarning qo'llanilishi haqida quyidagicha fikr bildirgan: "Assotsiatsiya yordamida so'zlar orasidagi semantik va emotsional bog'lanishlar o'quvchini faol fikrlashga undaydi" [1; 2].

Quyidagi mashqlar assotsiativ usulni imloda samarali qo'llash imkonini beradi:

1. So'z-assotsiatsiya zanjiri tuzish (masalan: "Qalam" – "yozish" – "daftar" – "maktab").
2. Tasvirga asoslangan imlo mashqlari (rasm asosida gap tuzish va undagi so'zlar imlosini aniqlash).
3. Rangli kartochkalar orqali so'zlarni eslab qolish.
4. Shaxsiy tajriba yoki hissiy holatlar bilan bog'liq so'zlarni yozish.
5. So'zlarning sinonim-antonim asosida bog'lanishini yozma mashqlarga kiritish.
6. So'zlar orasidagi semantik bog'liqlik asosida gaplar tuzish va ulardagini imlo xatolarini tuzatish.
7. Bir mavzuga oid so'zlar orqali kichik matn tuzish va imlo jihatdan tahlil qilish.
8. O'xshash va zid ma'nodagi so'zlardan foydalangan holda gaplar tuzish.
9. Berilgan so'z asosida o'zining biror voqeasini hikoya qilib berish (yodda qolgan so'zlar bilan).

Amaliy mashqlar namunasi:





1. Rasm beriladi. Rasmga qarab 5 ta so'z yozing. Har bir so'zni qanday hodisa, holat yoki shaxs bilan bog'laganingizni tushuntiring. Har bir so'zni to'g'ri imlo qoidasiga asosan yozilishiga e'tibor bering.

Kitob – Bolalar kitob o'qishyapti. Bu bilim olishga bo'lgan qiziqishni anglatadi.

Do'stlik – Rasmida bolalar birga o'tiribdi, bu ular do'st ekanini ko'rsatadi.

Yoz – Daraxtlar yashil, osmon ochiq – bu yoz faslini eslatadi.

Daraxt – Bolalar soyada o'tirishibdi, bu esa daraxtning insonlar uchun foydasini bildiradi.

Maktab – Bu maktab hovlisidagi holat, u ta'lif va tarbiyani anglatadi.

2. Berilgan so'zlardan har biriga o'xshash yoki zid ma'nodagi so'z toping va ularni o'z ichiga olgan gaplar yozing.

Nº	So'z	Sinonim / Antonim	Gap
1	katta	ulkan	Ulkan daraxtlar bog'ni ko'rkmamlantirib turardi.
2	sovuuq	issiq	Issiq kunlarda ko'proq suv ichish foydali.
3	dono	aqli	Aqli bola har bir so'zini o'ylab gapiradi.
4	chiroyli	go'zal	Go'zal manzara barchani hayratda qoldirdi.
5	mehnatkash	erinchoq	Erinchoq odam hech qachon katta yutuqlarga erisha olmaydi.
6	tez	sust	Sog'lom bola maktabga sust emas, tez yuradi.
7	sokin	shovqinli	Kitobxonlar sokin kutubxonada o'qishni xush ko'radi.
8	xursand	qayg'uli	Qayg'uli xabar uni uzoq vaqt tushkunlikka soldi.
9	mehribon	qo'pol	Mehribon o'qituvchi har :m o'quvchisini qo'llab-quvvatlaydi.
10	yangi	eski	Eski kitobda ham bebahoh bilimlar bo'lishi mumkin.

3. Quyidagi so'zlar asosida kichik matn tuzing: "kitob", "bilim", "maktab", "o'qituvchi", "sinfosh". Har bir so'zning imlosiga alohida e'tibor bering.

Har bir inson hayotida maktab muhim o'rinn tutadi. Aynan shu maskanda biz bilim olamiz, odob-axloqni o'rganamiz va kelajak uchun zamin yaratamiz. Maktabda bizni har kuni bag'rikeng va bilimdon o'qituvchi kutib oladi. O'qituvchilar bizga sabr bilan har bir mavzuni tushuntiradilar va har :m



savollarimizga javob berishga tayyor bo'ladilar. O'qituvchi bergan darslarni chuqurroq o'zlashtirish uchun men ko'pincha kitob mutolaa qilaman. Har bir o'qilgan kitob menga yangi bilim bag'ishlaydi. Kitoblar orqali men turli hayotiy voqealar, mashhur shaxslar va fan olamidagi kashfiyotlar bilan tanishaman. Məktəbda men bilan birga o'qiydigan sinfdoshlarim ham ilm olishga intiladilar. Biz darslardan keyin birlgilikda uy vazifalarini bajarish orqali bir-birimizga yordam beramiz. Shu tarzda o'zaro do'stlik, hamkorlik va muloqot madaniyatini shakllantiramiz. Shunday qilib, maktab, o'qituvchi, kitob, bilim va sinfdosh kabi tushunchalar mening hayotimda katta ahamiyatga ega. Men kelajakda yetuk shaxs bo'lishni istayman va buning uchun hozirdanoq ko'proq kitob o'qib, imlo qoidalariga rioya qilishga harakat qilaman.

4. 10 ta so'z beriladi. Har bir so'zga aloqador boshqa so'zlar yozing va imlosini to'g'ri yozilganini tekshirib chiqing.

Nº	Asosiy so'z	Aloqador so'zlar	Imlo tekshiruvi	Izoh
1	Taraqqiyot	rivojlanish, yutuq, ilg'orlik	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Barchasi taraqqiyot natijasini bildiradi
2	Mustaqillik	erkinlik, suverenitet, ozodlik	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Mustaqillikning sinonim va tushunchaviy :rasi
3	O'qituvchi	pedagog, ustoz, murabbiy	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Kasb va roli bir xil
4	Yozgi	ta'til, issiq, quyosh	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Yoz fasliga xos belgilar
5	Ilm	bilim, fan, izlanish	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Ilm egallash va tadqiqotga :r so'zlar
6	Madaniyat	urf-odat, san'at, meros	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Madaniyat turlari va ifodasi
7	Texnologiya	dastur, qurilma, innovatsiya	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Texnologik soha atamalari
8	Mas'uliyat	javobgarlik, burch, majburiyat	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Sinonimik so'zlar
9	Dasturxon	ovqat, meva, idish	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Dasturxon ustidagi narsalar
10	Hamkorlik	jamoa, hamjihatlik, loyiha	<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	Hamkorlikka :r faoliyatlar

5. Ikki xil mavzudagi so'zlar beriladi (masalan: "tabiat" va "texnika"). Har bir toifadan 5 tadan so'z tanlab, har biriga bog'liq gaplar tuzing.

Topshiriq: So'z toifalari asosida gaplar tuzing.

Vazifa: Quyidagi ikki mavzu asosida berilgan so'zlardan foydalaning:

Mavzu 1: Tabiat



Mavzu 2: Texnika

1-bosqich: Har bir mavzuga oid 5 tadan so'z tanlang.

2-bosqich: Har bir so'z ishtirok etgan bittadan grammatik jihatdan to'g'ri, mazmunli gap tuzing.

Tabiat

Daraxt – Bog'dagi daraxtlar gullay boshladi.

Qush – Bahorda qushlar chug'urlashi yurakni yaratadi.

Tog' – Biz tog' etagida sayr qildik.

Gul – Har xil rangdagi gullar bog'ni bezatadi.

Daryo – Baliqchilar daryo bo'yida to'plangan edi.

Texnika

Kompyuter – Kompyuter yordamida yangi dastur yaratdim.

Telefon – Telefon orqali do'stlarim bilan muloqot qilaman.

Televizor – Televizorda badiiy film tomosha qildik.

Mashina – Otam yangi mashina sotib oldi.

Robot – Zavodda ishlaydigan robotlar unum dorlikni oshiradi.

O'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish maqsadida yuqorida gilar asosida qo'shimcha topshiriq berish mumkin.

Xato yozilgan gaplarni to'g'riling. Quyidagi gaplarda imlo xatolari mavjud.

Har bir gapni diqqat bilan o'qing va imloviy xatoni topib, to'g'ri shaklini yozing.

1. Qushlar bohorda daraxtlarga in quradi.
2. Robotlar murakab buyruqlarni bajaradi.
3. Kechki yog'gan yog'mirdan so'ng daryo suvi toshdi.
4. Kompyuter texnologiyalari tez rivojlanmoqda.
5. Bahor faslida gullar o'sadi va havvo musaffo bo'ladi.

Assotsiativ usul yordamida imlo savodxonligini oshirishda axborot texnologiyalaridan ham foydalanish mumkin.

Topshiriq: QR-kod orqali tinglangan matn asosida 10 ta asosiy so'zni yozing va ularni turli usullar bilan eslab qoling (chizish, guruhash, bog'lash).

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, assotsiativ usul qo'llanilgan sinflarda o'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozish qoidalarini ancha tez o'zlashtirishgan. Bu usul o'quvchilarning faolligini oshirgan, mustaqil fikrlash va xotirada mustahkamlash imkonini bergen.

Assotsiativ usul orqali imlo savodxonligini rivojlantirish o'quvchilar tafakkurini faollashtirish, fikrlar va so'zlar orasida mantiqiy bog'lanishlar hosil qilish orqali imloviy ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu usul o'quvchilarning yozma nutqdagi xatolarini kamaytirish, so'z boyligini kengaytirish va mustaqil fikrlash salohiyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Assotsiatsiya jarayonida so'zlar va tushunchalar o'rtasidagi semantik aloqalarni topish, ularni holat, obraz yoki hodisalar bilan bog'lash o'quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu yondashuv o'quvchini faol o'rganishga undaydi, imlo qoidalarini ongli va barqaror o'zlashtirishga yordam beradi. Interaktiv texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan assotsiativ topshiriqlar mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, bu metod ta'limda



individual yondashuvga asoslanib, har bir o'quvchining o'z xotirasi va qabul qilishiga mos usullarni qo'llash imkonini beradi. Shuning uchun assotsiativ yondashuv zamonaviy imlo ta'limida dolzarb va samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Avliyokulov A. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent, 2020.
2. Rajabov Sh. "Ona tilini o'rgatish metodikasi va texnologiyasi". Toshkent, 2019.
3. Pavlov I.P. "Lectures on Conditioned Reflexes", Moscow, 1927.
4. Locke J. "An Essay Concerning Human Understanding".
5. Hume D. "A Treatise of Human Nature".
6. Vygotsky L.S. "Thought and Language".
7. Richards J.C., Rodgers T.S. "Approaches and Methods in Language Teaching".
8. Brown H.D. "Principles of Language Learning and Teaching".
9. www.learningapps.org — Interaktiv platforma.
10. www.wordwall.net — Vizual asosli o'yinlar uchun onlayn resurs

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/IEPO9879

TIL TA'LIMIDA SUN'iy INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR

Umarova Iroda Shavkatjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

tayanch doktoranti

iroda.iiu@gmail.com

ORCID: 0009-0001-1256-7288

Annotatsiya

Mazkur maqolada til ta'limi jarayoniga sun'iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning nazariy, metodik hamda amaliy jihatlari tahlil etiladi. SI vositalarining til o'rganishdagi o'rni, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan pedagogik modellar, AI vositalarini qo'llash orqali til kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada olib borilgan eksperimental tadqiqot asosida amaliy tavsiyalar berilgan.

Abstract.

This article analyzes the theoretical, methodological and practical aspects of integrating artificial intelligence (AI) and digital technologies into the language learning process. The role of AI tools in language learning, pedagogical models developed on the basis of modern technologies, and ways of forming language competencies through the use of AI tools are considered. The article also provides practical recommendations based on the experimental research conducted.

Аннотация

В статье анализируются теоретические, методические и практические аспекты интеграции искусственного интеллекта (ИИ) и цифровых технологий в процесс изучения языка. Рассмотрены роль инструментов ИИ в изучении языка, педагогические модели, разработанные на основе современных технологий, а также



Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. <i>ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvahob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIJ TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSALARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSALARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSALARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'iy INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

